



CHE TILLARINI MUSTAQIL ORGANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI

Muwsa Narimbetov

Nukus davlat pedagogika instituti 1-kurs doktoranti

Annotatsiya: Zamonaviy tálimda chet tillarini organish ustvor vazifa hisoblanib, oqitish jarayonini olib borishda va mustaqil til organish jarayonlarini sifatli tashkil etishda raqamli texnologiyalarning roli beqiyosligi va dolzarbligi boyicha malumotlarni ushbu maqola óz ichiga oladi.

Kálit sózlar: Chet tili, mustaqil tálim, raqamli texnologiyalar, interaktiv, visual tálim, motivatsion usullar.

Chet tillarini organish jarayonini takomillashtirish boyicha respublikamizda bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni organishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqishga olib chiqish chora -tadbirlari tog'risida" 2021 – yil 19 maydag'i PQ – 5117 – son qarori qabul qilingan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "chet tillarini oqitish tizimini takomillashtirish chora – tadbirlari tog'risida" 2021 – yil 6 maydag'i kengaytirilgan tarzda otkazilgan 23- son yig'ilishida chet tillarini organish uchun yetarli shart sharoitlar yaratish va chet tillarini organishni ommalashtirish hususida vazifalar belgilab berilan.

Respublikamizda chet yillarini oqitish jarayonini takomillashtirish boyicha bir qator tadqiqod ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Chet tillarini, xususan, inglis tilini oqitish jarayonini takomillashtirish, inglis tilini mustaqil organish jarayonlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning tutgan orni haqida M.A. Begmatov, O.A. Toshmatov kabi olimlar o'zlarining ilmiy – tadqiqodlarini olib borgan.

Inglis tilini organish jarayoni albatta mashaqatli jarayon hisoblanadi. Bu tilni mukammal egallash uchun mehnat va sabr-toqat zarur. Albatta, til organish jarayoniga tog'ri yondoshuv eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Pedagog olim Begmatov Mansur Adgarovich ham o'z tadqiqotida bu omillar boyicha toxtalib otgan va zamonaviy talim muhitida inglis tilini organish jarayonidagi olib borilishi zarur bolgan holatlar haqida bayon etgan va jarayonni sifatli tashkil etishda kuydagicha tariflarni keltirgan:

- Talabalar bilan individual ishlashish: Oqituvchi ta'lím jarayoniga pedagogic va psixologik jihatdan tog'ri yondoshuvni yolga qoyishi kerak. Demak, talabaga individual yondushuv bu jihatlardan biri sanaladi. Pedagog har bir talabaga, uning oziga hos jihatlarini inobatga olgan holda yondoshuvni olib borishi kerak sababi har bir talabaning oziga hos kuchli va zaif taraflari boladi, organish uslublari ham har xil

boladi, shunga qarap pedagog talim jarayonini tashkillashtirish ishlarini olib borishi zarur.

- Visual ta'lim: inglis tilini oqitishda ko'rgazmali materiallardan foydalanish, jarayonni tashkil etishning eng muhim jihatlaridan sanaladi. Korgazmali materiallardan har xil rasmlar, slaydlar, video va audio materiallardan foydalanish orqali kerakli konseptni yaxshi tushinib olish imkoniyati paydo boladi. Qoshimcha ravishta, bu kabi materiallardan foydalangan holda dars jarayonida qiziqarli oyinlarni va topshiriqlarni tashkillashtirish orqali talabalarining qiziqishlarini orttirish mumkin.

- Zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish: Zamonaviy texnologiyalar yordamida onlayn kurslar, konferenciyalarga qatnashish orqali yoki mobil til orgatuvchi ilovalar orqali mustaqil ravishda ishlash imkoniyati yaratiladi.

- Interaktiv usulda oqitishni tashkil etish: Bu inglis tilini oqitishda eng muhim jihatlardan sanaladi sababi til organish jarayonida har xil oyinlar tashkil etish orqali oquv materiallarini yaxshiroq tushinib olish va amaliyotda qollash imkoniyati yaratiladi. Inglis tilida gapishtirish konikamsini oshirishda, tog'ri talaffuzni organishda ham bu kabi mashqalar foydali boladi. Yangi sozlarni organishda ham yordam beradi. Bu jarayonlarni ham albatta texnologiyalar yordamida tashkil etish samarali boladi.

- Madaniy o'zgachaliklarni uyg'unlashtirish: Inglis tilida organiladigan ayrim so'zlar yoki iboralar har xil madaniyatlarda, har xil manolarga ega bo'lishi mumkin. Shu sababdan, pedagog madaniy hususiyatlardan kelib chiqgan holda tog'ri yondoshuvni yolga qoyishi kerak bo'ladi (1-2 sahifalar).

Biz inglis tilini dars jarayonida va mustaqil organishda zarur bolgan eng asosiy jihatlar bilan tanishdik. Albatta, inglis tilini oqitishda va talabalarining mustaqil ravishda organishlari yoki bilimlarini oshirishlarida ushbu jihatlarni hisobga olgan holda jarayonlarni tashkil etish maqsadga muvofiq boladi.

Yana bir pedagog olim Oybek Shokirovich Toshmatov o'z tadqiqodlarida talabalarining mustaqil ta'lim jarayonida chet tillarini organish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim deb hisoblaydi va bu jarayonni sifatli amalga oshirishda kuydag'i ishlar tizimli ravishda bajarilishi zarur deb hisoblaydi.

1. Talabalarining ijodiy tashabbuskorligini va mustaqil ishlash foaliyatini rivojlantirishga etibor qaratish zarur bu orqali talabalarining tafakkuri rivojlanadi. Talabalarga ko'proq erkinlik berish orqali ularning foalligini oshirish zarur va olingan bilimlarni amaliyotda tog'ri qollashga undash zarur.

2. Talabalarining jarayonga motivatsiyasini oshirish uchun sohadagi tajribali, yetuk pedagoglarning ishlarini ommalashtirish zarur.

3. Mustaqil ta'lim malumotlarini zamonaviy usullarda shakillantirish zarur

4. Chet tillarini mustaqil organish qobiliyatini rivojlantirish uchun ilg'or xorij tajribalaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

Albatta, tizimli ravishda ilg'or tajriba va texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil til organish jarayonlarini tashkil etish orqali talabalarining jarayonga



qiziqishlarini orttirish mumkin va minglab talabalarning til konikmalarini rivojlantirish mumkin deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. Begmatov M.A. “Raqamli texnologiyalar davrida ingliz tilini intensiv oqitishning psixologik va pedagogic jihatlari (ixtisoslashgan maktablar misolida). Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensive oqitishning psixologik – pedagogic jihatlari Respublika ilmiy – amaliy anjumani. 2023 – yil 2- iyun.

2. Oybek Shokirovich Toshmatov. “Talabalarga ingliz tilini oqitishda mustaqil ta’lim ko’nikmasini shakillantirish omillari”. International scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 6 (47), 106-118 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online)

3. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni organishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqishga olib chiqish chora -tadbirlari tog’risida” 2021 – yil 19 maydagi PQ – 5117 – son qarori.